

TALABALARNI KASBIY O'ZINI O'ZI ANGLASHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Yaxyoqulov Javohirbek Kamol o'g'li
“Tashkent International university” tyutori

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada talabalarning kasbiy o'zini o'zi anglash jarayoniga ta'sir etuvchi asosiy psixologik omillar tahlil qilinadi. Kasbiy o'zini o'zi anglash shaxsning o'z qiziqishlari, qobiliyatlari, imkoniyatlari, qadriyatlar va kasbiy maqsadlarini anglash hamda ularga mos kasbiy yo'nalishni belgilash jarayoni sifatida yoritiladi. Shuningdek, kasbiy o'zini o'zi anglashning talabaning kelajakdagi kasbiy faoliyati, kasb tanlashdagi mustaqilligi va kasbiy rivojlanishiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Maqola natijalari talabalarda kasbiy o'zini o'zi anglashni rivojlantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik faoliyatni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Kasbiy o'zini o'zi anglash, kasbiy rivojlanish, talaba shaxsi, kasbiy motivatsiya, kasbiy qiziqish, o'z-o'zini baholash, refleksiya, shaxsiy qadriyatlar, kasb tanlash, kasbiy yo'nalish, psixologik omillar, shaxs rivojlanishi, kasbiy identifikatsiya, ijtimoiy muhit, ta'lim jarayoni, kasbiy kompetensiya

KIRISH

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan va o'z kasbiy faoliyatiga ongli munosabatda bo'ladigan mutaxassislarni tayyorlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda talabalarning kasbiy o'zini o'zi anglashini shakllantirish va rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Kasbiy o'zini o'zi anglash shaxsning o'z imkoniyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va individual xususiyatlarini anglagan holda kelajakdagi kasbiy faoliyatiga nisbatan aniq maqsad va yo'nalishni belgilash jarayonidir. Talabaning kasbiy o'zini anglashi uning kasb tanlashdagi faolligi, kasbiy motivatsiyasi, o'ziga bo'lgan ishonchi hamda kelajakdagi professional rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Talabalik davri shaxsning ijtimoiy va kasbiy jihatdan shakllanishida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi.[1] Aynan ushbu davrda yoshlar o'zlarining hayotiy maqsadlari, qadriyatlar va kasbiy istiqbollari haqida chuqurroq fikr yurita boshlaydilar. Kasbiy o'zini o'zi anglash jarayoni talabaning o'z kasbiy imkoniyatlarini baholashi, tanlagan kasbiga munosabatini shakllantirishi hamda kasbiy faoliyatda o'z o'rnini belgilashi bilan tavsiflanadi. Bunda shaxsning ichki psixologik xususiyatlari bilan bir qatorda tashqi ijtimoiy omillar ham muhim rol o'ynaydi.

Talabalarning kasbiy o'zini o'zi anglashiga ta'sir etuvchi psixologik omillar qatoriga kasbiy motivatsiya, qiziqishlar, o'z-o'zini baholash, refleksiya, shaxsiy qadriyatlar, intilishlar, qobiliyatlar va emotsional-irodaviy xususiyatlarni kiritish mumkin. Ushbu omillarning uyg'unligi talabaning o'z kasbiy imkoniyatlarini to'g'ri anglashiga va kelajakdagi faoliyatini ongli ravishda rejalashtirishiga yordam beradi. Shu bilan birga, oilaviy muhit, ta'lim muassasasidagi psixologik muhit, pedagoglarning ta'siri, tengdoshlar bilan munosabatlar ham kasbiy o'zini o'zi anglash jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy mehnat bozoridagi tezkor o'zgarishlar, yangi kasblarning paydo bo'lishi va mutaxassislariga qo'yilayotgan talablarning ortib borishi talabalardan o'z kasbiy imkoniyatlarini muntazam ravishda tahlil qilishni talab etmoqda. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy o'zini o'zi anglashini rivojlantirish, ularning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish va kasbiy yo'nalishini aniqlashga ko'maklashish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Talabalarning kasbiy o'zini o'zi anglash jarayoni shaxs rivojlanishining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u insonning o'z imkoniyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari va kasbiy istiqbollari anglashiga asoslanadi. Kasbiy o'zini o'zi anglash talabaning tanlagan kasbiga nisbatan ongli munosabatini shakllantirish, o'zining ushbu kasbga mosligini baholash hamda kelajakdagi kasbiy faoliyatini rejalashtirish jarayonini ifodalaydi. Ushbu jarayon shaxsning umumiy o'zini o'zi anglash tizimi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning hayotiy maqsadlari va kelajak haqidagi tasavvurlariga ham ta'sir ko'rsatadi.[2] Kasbiy o'zini o'zi anglash jarayonida talaba, avvalo, o'zining individual-psixologik xususiyatlarini anglashga harakat qiladi. Bunda uning qiziqishlari, qobiliyatlari, temperament xususiyatlari, xarakteri, intellektual imkoniyatlari va shaxsiy qadriyatlari muhim o'rin egallaydi. Talaba o'zining kuchli va rivojlantirilishi lozim bo'lgan jihatlarini baholash orqali kelajakdagi kasbiy faoliyatiga nisbatan aniqroq tasavvur hosil qiladi. Bu esa kasbiy tanlovning ongli va asosli amalga oshirilishiga yordam beradi. Kasbiy o'zini o'zi anglashning muhim jihatlaridan biri kasbiy identifikatsiya hisoblanadi. Kasbiy identifikatsiya talabaning o'zini muayyan kasb vakili sifatida tasavvur qilishi, ushbu kasbning mazmuni va talablarini qabul qilishi hamda o'zini kelajakdagi mutaxassis sifatida shakllantirishidir. Masalan, psixologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talaba o'zini kelajakda malakali psixolog sifatida tasavvur qilishi, mazkur kasb uchun zarur bilim, ko'nikma va shaxsiy sifatarni egallashga intilishi kasbiy identifikatsiyaning shakllanishidan dalolat beradi. Talabalarning kasbiy o'zini o'zi anglashida refleksiya ham muhim psixologik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Refleksiya orqali shaxs o'z faoliyati, xatti-harakatlari, bilimlari va imkoniyatlarini tahlil qiladi. Talaba o'zining kasbiy tayyorgarlik darajasini baholaydi, mavjud kamchiliklarini aniqlaydi va ularni bartaraf etish yo'llarini izlaydi. Natijada unda o'z ustida ishlash, bilim va ko'nikmalarini

rivojlantirishga nisbatan ichki ehtiyoj shakllanadi. Shuningdek, kasbiy o'zini o'zi anglash dinamik jarayon bo'lib, u talabaning ta'lim olish davrida muntazam rivojlanib boradi. Dastlabki bosqichlarda talaba tanlagan kasbi haqida umumiy tasavvurga ega bo'lsa, ta'lim jarayoni davomida uning kasb haqidagi bilimlari, tajribasi va qarashlari kengayadi. Amaliy mashg'ulotlar, kasbiy amaliyotlar, mutaxassislar bilan muloqot va mustaqil faoliyat natijasida talabaning kasbiy o'zini anglash darajasi yanada takomillashadi. Demak, talabalarning kasbiy o'zini o'zi anglash jarayoni murakkab psixologik hodisa bo'lib, u shaxsning o'zini, o'z imkoniyatlarini va kasbiy istiqbollari anglashiga xizmat qiladi. Ushbu jarayonning samarali shakllanishi talabaning kelajakda o'z kasbini ongli ravishda egallashi, professional rivojlanishga intilishi va jamiyatda munosib o'rin topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Motivatsiya shaxsning muayyan faoliyatni amalga oshirishga undovchi ichki va tashqi sabablar tizimini ifodalaydi. Kasbiy motivatsiya esa talabaning tanlagan kasbini egallashga, mazkur sohada bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga hamda kelajakda malakali mutaxassis bo'lishga yo'naltirilgan intilishlari bilan belgilanadi. Kasbiy motivatsiyaning yuqori darajada shakllanganligi talabaning o'z kasbiga nisbatan ijobiy munosabatini kuchaytiradi. Agar talaba tanlagan mutaxassisligiga qiziqmasa yoki kasb tanlovi tashqi bosim asosida amalga oshirilgan bo'lsa, unda kasbiy noaniqlik yuzaga kelishi ehtimoli ortadi. Bunday holatda talaba o'zining kasbiy kelajagini aniq tasavvur qila olmaydi, ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishi pasayadi va kasbiy rivojlanishida qiyinchiliklar kuzatiladi.

Talabalik davrida o'z-o'zini baholash doimiy ravishda rivojlanib boradi. Ta'lim jarayonida olingan bilimlar, amaliy mashg'ulotlar, pedagoglarning bahosi, tengdoshlar bilan munosabatlar va hayotiy tajribalar talabaning o'zi haqidagi tasavvurlariga ta'sir ko'rsatadi. Kasbiy faoliyat bilan bog'liq muvaffaqiyatlar talabaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirsa, ayrim qiyinchiliklar va muvaffaqiyatsizliklar uning o'z imkoniyatlarini qayta baholashiga sabab bo'ladi. Kasbiy o'zini o'zi anglashda adekvat, ya'ni haqiqatga mos o'z-o'zini baholash katta ahamiyatga ega. O'z imkoniyatlarini haddan tashqari yuqori yoki past baholash talabaning kasbiy rivojlanishiga ma'lum darajada salbiy ta'sir qilishi mumkin. O'ziga ortiqcha ishonish mavjud kamchiliklarni e'tibordan chetda qoldirishga olib kelsa, o'zini past baholash esa kasbiy faollikning pasayishiga, ikkilanish va ishonchsizlikning kuchayishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun talabaning o'z imkoniyatlarini real baholashi kasbiy shakllanish uchun muhim shartlardan biridir. Refleksiya esa shaxsning o'z fikrlari, harakatlari, kechinmalari va faoliyat natijalarini tahlil qilish jarayonidir. Talaba refleksiya orqali o'zining kasbiy tayyorgarlik darajasini, egallagan bilim va ko'nikmalarini hamda kelajakdagi faoliyatiga tayyorgarligini baholaydi. Ushbu jarayon unga o'z faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlash, xatolardan xulosa chiqarish hamda keyingi rivojlanish istiqbollari belgilash imkonini beradi. Refleksiv qobiliyatning rivojlanganligi talabaning mustaqil

fikrlashi va o‘z ustida ishlashiga yordam beradi. Talaba o‘zining kasbiy maqsadlariga qay darajada yaqinlashayotganini tahlil qilib boradi, zarur hollarda o‘z rejalari va faoliyatiga o‘zgartirishlar kiritadi. Bu esa kasbiy rivojlanishning ongli va maqsadli amalga oshirilishini ta’minlaydi. O‘z-o‘zini baholash va refleksiya o‘zaro chambarchas bog‘liq jarayonlardir. Refleksiya yordamida talaba o‘z faoliyatini tahlil qiladi, o‘z-o‘zini baholash orqali esa ushbu faoliyat natijalariga ma’lum munosabat bildiradi. Mazkur jarayonlarning uyg‘un rivojlanishi talabaning kasbiy o‘zini o‘zi anglashini kuchaytiradi va uning kelajakdagi mutaxassis sifatida shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Talabalarning kasbiy o‘zini o‘zi anglashini rivojlantirish oliy ta’lim jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun talabaning individual-psixologik xususiyatlari, kasbiy qiziqishlari, ehtiyojlari, motivlari va kelajakdagi kasbiy maqsadlarini hisobga olish zarur. Kasbiy o‘zini o‘zi anglashning rivojlanishi talabaning o‘z imkoniyatlarini anglashidan tashqari, ushbu imkoniyatlarni kasbiy faoliyat talablariga moslashtirishni ham nazarda tutadi. Oliy ta’lim muassasasida kasbiy o‘zini o‘zi anglashni rivojlantirishda psixologik treninglar, kasbiy maslahatlar, diagnostik metodikalar, individual suhbatlar va guruhli mashg‘ulotlardan foydalanish samarali natija beradi. Xususan, kasbiy qiziqishlar, qobiliyatlar, motivatsiya va shaxsiy xususiyatlarni aniqlashga qaratilgan psixodiagnostik metodikalar talabaning o‘zini chuqurroq anglashiga yordam beradi. Diagnostika natijalari asosida talaba o‘zining kasbiy imkoniyatlari va rivojlanishi zarur bo‘lgan jihatlari haqida aniqroq tasavvurga ega bo‘ladi. Kasbiy o‘zini o‘zi anglashni rivojlantirishda amaliy faoliyatning ahamiyati ham yuqori. Talabaning o‘z mutaxassisligi bo‘yicha amaliyotlarda ishtirok etishi, real kasbiy vaziyatlarni tahlil qilishi va mustaqil topshiriqlarni bajarishi nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan bog‘lash imkonini beradi. Bunday faoliyat davomida talaba tanlagan kasbining mazmuni, talablari va mas’uliyatini bevosita anglaydi. Shu orqali uning kasbiy identifikatsiyasi va professional mas’uliyat hissi shakllanadi. Pedagogning qo‘llab-quvvatlovchi munosabati ham talabaning kasbiy o‘zini o‘zi anglashiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchi talabaning mustaqil fikrlashini rag‘batlantirishi, uning yutuqlarini e’tirof etishi va kamchiliklarini konstruktiv tarzda ko‘rsatib berishi lozim. Talabaga o‘z fikrini erkin ifodalash, kasbiy masalalarni mustaqil hal qilish va o‘z faoliyatini baholash imkoniyatining berilishi uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Shuningdek, kasbiy o‘zini o‘zi anglashni rivojlantirishda kasbiy maqsadlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Talaba qisqa va uzoq muddatli kasbiy maqsadlarini belgilashi, ularga erishish bosqichlarini rejalashtirishi hamda o‘z faoliyati natijalarini muntazam tahlil qilib borishi zarur. Bunday yondashuv talabaning kasbiy rivojlanishiga nisbatan mas’uliyatini oshiradi va o‘z kelajagini ongli ravishda qurishiga yordam beradi.

XULOSA

Umuman olganda, talabalarning kasbiy o‘zini o‘zi anglashini rivojlantirish kompleks psixologik-pedagogik yondashuvni talab etadi. Bunda kasbiy motivatsiyani kuchaytirish, adekvat o‘z-o‘zini baholashni shakllantirish, refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirish, kasbiy qiziqishlarni qo‘llab-quvvatlash va amaliy tajribani kengaytirish muhim hisoblanadi. Mazkur omillarning uyg‘unligi talabaning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga ongli tayyorgarligini ta’minlab, uning kompetentli va mustaqil mutaxassis sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Andreeva G.M. Социальная психология. – М.: Аспект Пресс, 2001.
2. Bandura A. Self-Efficacy: The Exercise of Control. – New York: W.H. Freeman, 1997.
3. Davletshin M.G., Do‘stmuhamedova Sh.A., Mavlonov M.M. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – T.: O‘zbekiston, 2004.
4. Klimov E.A. Психология профессионального самоопределения. – М.: Академия, 2004.
5. Erikson E.H. Identity and the Life Cycle. – New York: W.W. Norton, 1980.
6. Pryazhnikov N.S. Профессиональное и личностное самоопределение. – М.: Воронеж, 1996.
7. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – T.: Fan va texnologiya, 2012.
8. Rubinstein S.L. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2002.